

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining
Ilmiy-metodik Kengashi to‘g‘risida**

NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagи “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-415-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut) Ilmiy-metodik Kengashi (keyingi o‘rinlarda - Kengash) faoliyatini belgilaydi.

2. Kengashning maqsadi - oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlari sifatini takomillashtirish, ularni me’yoriy va metodik ta’midotini amalga oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlariga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishini muvofiqlashtirish, pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini ularning malakasini oshirish natijalariga bog‘liq holda uzlusiz rivojlantirib borish uchun zarur tavsiyalar berishdan iborat.

3. Kengashning vazifalari quyidagilardan iborat:

Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim tashkilotlarining qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlari, o‘quv-metodik va me’yoriy hujjatlarning muhokamasini olib borish va ekspertizasini tashkil etgan holda tasdiqqa tavsiya etish; malaka oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv dasturlari mazmunini takomillashtirish, ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni ta’minlash maqsadida hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish; malaka oshirishning ta’lim jarayoni sifati va natijalarini tizimli tahlil qilish, pedagoglarning zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalari rivojlanishining o‘zgarishini baholab borish;

ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda kasbiy rivojlanish bo‘yicha o‘quv-metodik materiallar tayyorlanishi va samarli metodikalar ishlab chiqilishini ta’minlash; pedagoglarni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan tanishtirish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qilish dasturlarini ishlab chiqish;

Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning faoliyatlari bo‘yicha hisobotlarini muhokama qilib borish; professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligi darajasini, ularning yuqori

malakali kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashning talab qilinadigan darajasini ta'minlash bo'yicha faoliyat natijalarini tahlil qilish;

oliy ta'lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ta'lim dasturlarini, o'quv-metodik va me'yoriy hujjatlarning amaliyotdagi ijrosini tahlil qilish;

oliy ta'lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish, xulosa va takliflar ishlab chiqish orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini sifatini muntazam takomillashtirib borishga oid tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror, farmon va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qaror va buyruqlari asosida amalga oshiradi.

II. Kengash faoliyatini tashkil etish.

5. Kengashning faoliyati O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" qonuniga, boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi va oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini jamoatchilik tomonidan boshqarishning doimiy ishlaydigan organi hisoblanadi.

6. Kengash, qoida bo'yicha, Kengashning raisi, rais o'rinosi, ilmiy kotibi va a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Kengash faoliyatini Institut direktori boshqaradi. Kengash tarkibiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining mutassadi rahbarlari va xodimlari, pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarining rahbarlari hamda malaka oshirish sohasida boy tajribaga ega mutaxassislar kiritiladi.

7. Kengash vakolatiga tegishli masalalarni hal etishda uning a'zolarini teng huquqliligi tamoyillari ta'minlanadi.

8. Bundan tashqari zarur paytlarda institut, Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim tashkilotlarining tegishli bo'lim boshliqlari, tajribali professor-o'qituvchilari Kengashning kengaytirilgan yig'ilishlariga xabarnoma orqali taklif kiritadilar.

9. Kengash tarkibi Institut direktori tomonidan shakllantiriladi va Kengash qarori bilan tasdiqlanadi. Har kalendar yilining boshida turli sabablarga binoan Kengash tarkibidan chiqarilganlar o'rniga yangi a'zolar lavozim vazifalariga ko'ra kiritiladi.

10. Kengash o'z ishini har kalendar yili uchun ishlab chiqiladigan rejasiga muvofiq amalga oshiradi. Kengash ish rejasi uning yig'ilishida muhokama etilgandan so'ng, direktor tomonidan tasdiqlanadi.

11. Kengash yig‘ilishi uning a’zolarining 3/2 qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi va o‘tkazilishi mumkin.

12. Kengash o‘z faoliyatini tasdiqlangan reja asosida tashkil qiladi va o‘z majlislarini uch oyda kamida bir marta o‘tkazadi. Kengash raisi tomonidan Kengash a’zolarining yozma iltimosnomalari asosida navbatdan tashqari majlislar chaqirilishi mumkin. Ularda majlisni o‘tkazishning sabablari va asoslari bayon qilinishi kerak.

13. Kengash majlisini Kengash raisi olib boradi. Rais bo‘limgan taqdirda majlisni uning o‘rinbosari boshqaradi.

14. Kengash muhokamasida ko‘rilgan barcha masalalar bo‘yicha uning qarorlari ochiq ovoz berish tartibida, ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

15. Muhokama etilgan masalalar yuzasidan Kengash yig‘ilishi qabul qilgan qarorlar Institut direktori tasdiqlaganidan keyin, amalda kuchga kiradi.

16. Muhokama etilgan masalalar yuzasidan Kengash yig‘ilishi bayonnomasi tayyorlanadi. Kengash bayonnomasi uning raisi va ilmiy kotibi tomonidan imzolanadi.

17. Kengash ilmiy kotibi muntazam ravishda kengashning qarorlarini bajarilishining yuzasidan axborot berib boradi.

III. Kengash a’zolarining vazifalari va vakolatlari.

18. Kengash raisi:

Kengash majislari kun tartibini belgilash va ko‘rildigan masalalar muhokamasini tashkil qiladi;

Kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar bajarilishi yuzasidan nazoratni tashkil etadi;

Kengash a’zolariga yuklangan vazifalarning bajarilishi bo‘yicha ularning ishlarini muvofiqlashtiradi;

Davlat organlari va boshqa tashkilotlarda Kengash manfaatlarlarini ifodalaydi;

Kengashning samarli ishlashini ta’minalash bo‘yicha tegishli shart-sharoitlarni yaratadi;

Kengash raisi o‘rinbosari hamda ilmiy kotibini tayinlaydi.

19. Kengash raisi o‘rinbosari:

Kengash raisi uzrli sabablarga ko‘ra yig‘ilishda ishtirok eta olmagan holatlarda Kengash yig‘ilishini olib boradi;

Kengash kun tartibidagi muhokamali masalalar bo‘yicha tegishli ma’lumotlarni ilmiy kotib bilan birgalikda tayyorlanishini tashkil etadi va yig‘ilishdan ikki kun avval raisga taqdim etadi;

Kengash qarorlari ijrosi monitoringini olib boradi.

20. Kengash ilmiy kotibi:

Kengash majlisiga barcha zarur hujjatlarning o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minalaydi;

Majlisni o‘tkazish muddati va joyini Kengash raisi bilan kelishadi;

Kun tartibidagi masalalar bo‘yicha Kengash majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi; Kengash a’zolari va taklif etilgan shaxslarni Kengash o‘tkaziladigan sana, uning kun tartibi loyihasi, o‘tkazilish vaqtiga joyi to‘g‘risida xabardor qiladi;

Kengash qarorlari ijrosi monitoringini olib boradi;

Kengash protokollarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan protokollarni Kengash a’zolariga va boshqa manfaatdor tashkilotlarga yuboradi.

21. Kengash a’zolari:

Kengash majlislarida ko‘rib chiqilayotgan masalalarni muhokama qilishda va tegishli qarorlar qabul qilishda faol qatnashadilar;

Kengashga oliv ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirishning dolzarb masalalari bo‘yicha takliflar kiritadilar;

Kengash tomonidan muhokama qilinayotgan masalalar bo‘yicha xulosalar taqdim etadilar;

Kengash a’zolari o‘z faoliyatini Kengash tarkibida jamoatchilik asosida amalga oshiradilar.

IV. Kengash majlislarini olib borish tartibi.

22. Kengash majlislari kamida uch oyda bir marotaba tasdiqlangan rejaga asosan oyning uchinchi haftasida o‘tkaziladi.

23. Kengash majlisini zarur masalalarni ko‘rib chiqish lozim bo‘lganda navbatdan tashqari chaqirish mumkin.

24. Navbatdagi majlisning asosiy masalalari bo‘yicha kun tartibi majlisdan 5 kun avval tuziladi va Kengash a’zolariga tarqatiladi.

25. Ma’ruzachi hamda tegishli mas’ullar muhokamaga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha tayyorlangan ma’lumotnomasi va qaror loyihasini majlisdan 3 kun avval Kengash ilmiy kotibiga topshiradilar.

26. Muhokamali masalalar bo‘yicha ma’ruzaning qisqa mazmuni va qarorlar loyihalari majlisdan bir kun avval Kengash a’zolariga tarqatiladi.

27. Kengash a’zolari tegishli masalalar bo‘yicha qarorlar loyihasi to‘g‘risida o‘z fikr muloxazalarini Kengash ilmiy kotibiga yig‘ilishdan avval yoki muhokama davomida yetkazishlari mumkin.

28. Muhokamali masalalar bo‘yicha Kengashda qabul qilingan qarorlar nazorat-tahrir komissiyasi tomonidan tahrir qilinadi.

29. Kengash majlisiga uzrli sabab bilan qatnasha olmaydigan Kengash a’zosi majlis boshlanishidan avval Kengash ilmiy kotibini ogohlantirishlari lozim.

30. Kengash a’zolari majlis boshlanishidan 15 daqiqa avval ishtirok varag‘iga imzo chekishadi.

31. Majlis boshlanishidan 5 daqiqa avval Kengash ilmiy kotibi lozim bo‘lgan ko‘philik mavjudligi xaqida Kengash raisini xabardor kiladi.

V. Yakuniy qoidalar

32. Kengash o‘rnatilgan tartibda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

33. Mazkur Nizom Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan tasdiqlangandan so‘ng kuchga kiritiladi.

34. Nizomga qo‘srimchalar va o‘zgartirishlar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan tasdiqlanadi.